

QUVASOY SHAHRIDAGI 1-MAKTABDA "XALQLAR DO'STЛИGI" FESTIVALI KO'TARINKI RUHDA O'TDI

Quvasoy shahar 1-umumta'lim mакtabida "Xalqlar do'stligi" festivali tashkil etildi.

Millatlararo totuvlikni mustahkamlash, mamlakatimizda istiqomat qilayotgan barcha millat va elat vakillarining madaniyati, tili, milliy an'ana va urf-odatlarini asrab-avaylash maqsadida o'tkazilgan tadbirda, ayniqsa, o'quvchilar faol ishtirok etishdi.

Ular o'zlarini tomonidan tayyorlangan qiziqarli dasturlari va ko'rgazmalarini orqali turli millatlarning madaniyati, qo'shiq va raqslari, milliy taomlarini namoyish qildilar. O'zlarini bilgan qiziqarli ma'lumotlarni so'zlab berishdi.

Zotan, bu kabi tadbirdalar o'zaro hamjihatlik, bag'rikenglik, mehr-oqibat muhitini mustahkamlashga, milliy madaniyatlar, urf-odat va an'analarni saqlash hamda rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shu ma'noda tadbirda so'z olganlar ham yig'ilganlarni yanada birdamlikka, yurt ravnaqi va taraqqiyoti uchun mehnat qilishga, o'g'il - qizlarni doimo o'qib - o'rganib, o'z sohasini yetuk bilimdoni bo'lib kamol topishga chorladilar.

[Бизни ижтимоий тармоқларда кузатинг Facebook](#),

2024-04-29 09:31:56